

ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARDA ESHITISH
SEZGILARINING XUSUSIYATLARI, ULARNING
ATROFDAGI DUNYONI TUSHUNISHDAGI ROLI

Roziqova Malika Olim qizi

Namangan Davlat Pedagogika instituti

Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Nasirova Nilufar Nazirjon qizi

Maxsus pedagogika (logopediya) yo'nalishi 2-bosqich

talabasi Tel:+998943852291

E-mail:nilufarnasirova262@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning eshitish sezgilarining xususiyatlari va ularning atrofdagi dunyoni tushunishdagi roli tahlil qilinadi. Eshitish nuqsonining turlari, darajalari va ularning bolaning nutq, til, kognitiv rivojlanish hamda ijtimoiy aloqalariga ta'siri ko'rib chiqilgan. Shuningdek, eshitish qobiliyati yetishmasligini kompensatsiya qilish imkoniyatlari, jumladan kohlear implantlar, eshitish apparatlari, logopediya va vizual yordamlar orqali bolaning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash usullari ko'rsatib berilgan. Maqola eshitish nuqsoni bo'lgan bolalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini optimallashtirish uchun erta aniqlash va individual yondashuvning ahamiyatini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: eshitish, karlar, zaif eshituvchilar, gers, detsibel, kohlear implantatsiya, kompensatsiya.

Аннотация: В данной статье анализируются особенности слухового восприятия у детей с нарушениями слуха и их роль в понимании окружающего мира. Рассматриваются виды и степени нарушений слуха, а также их влияние на речь, язык, когнитивное развитие и социальные взаимодействия ребенка. Кроме того, показаны возможности компенсации недостатков слуха, включая кохлеарные импланты, слуховые аппараты, логопедию и визуальные средства поддержки развития ребенка. Статья

подчеркивает важность раннего выявления и индивидуального подхода для оптимизации личностного и социального развития детей с нарушениями слуха.

Ключевые слова: слух, глухие, слабослышащие, герцы, децибел, кохлеарная имплантация, компенсация.

Abstract: This article analyzes the characteristics of auditory perception in children with hearing impairments and their role in understanding the surrounding world. It examines the types and degrees of hearing loss, as well as their impact on the child's speech, language, cognitive development, and social interactions. Additionally, the possibilities of compensating for hearing deficits are presented, including cochlear implants, hearing aids, speech therapy, and visual support methods to enhance the child's development. The article emphasizes the importance of early detection and an individualized approach to optimize the personal and social development of children with hearing impairments.

Keywords: hearing, deaf people, hard of hearing, hertz, decibel, cochlear implantation, compensation.

KIRISH

Eshitish —bu odam va hayvonlar organizmining tovush tebranishlarini qabul qilish xususiyati hisoblanadi. Bu jarayon mexanik, retseptor va nerv tuzilmalaridan tashkil topgan eshitish analizatorlari faoliyati natijasida ro'y beradi. Tovush ta'sirida odamda tovush signallari parametrlarni aks ettiruvchi eshitish sezgisi paydo bo'ladi, buning natijasida esa tovush tebranishlari chastotasi tovush balandligi tarzida qabul qilinadi [6].

Eshitish – insonning eng muhim sezgi organlaridan biri bo'lib, u nafaqat tovushlarni qabul qilish, balki nutqni rivojlantirish, ijtimoiy muloqot, emotsional tajribalar va borliqni anglash jarayonlarida hal qiluvchi o'rin tutadi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda ushbu jarayonlar biroz boshqacha kechadi. Eshitish qobiliyatining pasayishi yoki yo'qligi bolaning atrof-muhitni idrok etishi, muloqotga kirishishi va bilish faoliyatining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Eshitishda nuqsoni

bo'lgan bolalar asosan ikki guruhga karlar ya'ni, chuqur eshitish qobiliyati yo'qolganlar va zaif eshituvchilar-qisman eshitish qobiliyati saqlangan bolalarga bo'linadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ma'lum bir qismida, ayniqsa, zaif eshituvchilarda, eshitish sezgisi qoldiqlari: nonutqiy yoki baland tovushlarni eshitish xususiyati mavjud bo'ladi. Maxsus akustik apparatlar, masalan, eshitish moslamalari, koxlear implantlar yordamida eshitish qoldig'ini faollashtirish va rivojlantirish mumkin. Eshitish idroki to'liq yoki qisman buzilganligi sababli, bola tovushlarni farqlashda (ayniqsa, nutq tovushlarini), ularning manbasini aniqlashda va nutqni tushunishda qiyinchiliklarga duch keladi. Agar bolaga erta yoshdan korreksion-pedagogik yordam ko'rsatilsa va maxsus texnologiyalar qo'llanilsa, eshituv idrokini ma'lum darajada rivojlantirish mumkin.

So'nggi yillarda ishlab chiqarilayotgan akustik apparatlar yordamida o'tkazilgan tadqiqotlar natijalarining ko'rsatishicha, eshituvda nuqsoni bo'lgan bolalarning 40% ida eshituv sezgisi qoldiqlari mavjud ekan. Ushbu eshitish qoldiqlaridan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish mumkin. XIX asrda I.I.Fleri, N.M.Lagovskiy kabi tadqiqotchi olimlar ham karlar eshitish qoldig'i mavjudligini e'tirof etadilar. N.M.Lagovskiy ta'kidlashicha, bu eshituv qoldig'ini ma'lum korreksion – rivojlantiruvchi ishlarni tashkil qilish va olib borish orqali faollashtirish, rivojlantirish mumkin [7]. Eshitishning buzilishi natijasida bolalar atrofdagi olam haqidagi ma'lumotlarni to'liq qabul qila olmaydilar. Shuning uchun, idrok va bilish jarayonlarida kompensator mexanizmlar ishga tushadi:

1) Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda ko'rish sezgisi va idroki asosiy o'rin tuta boshlaydi. Ular tashqi atrof-muhitni anglashda asosan vizual obrazlar, shakllar, ranglar, harakatlar va labdan o'qish orqali axborotni qabul qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday bolalar hatto eshituvchi bolalar e'tibor bermaydigan tashqi olamning nozik xususiyatlari va detallariga ham diqqat qilishadi.

2) Teri tuyish sezgisi orqali ular narsa-buyumlarning shakli,hajmi, kattaligi va haroratini aniqlaydilar, bu esa ularning bilish jarayoniga katta hissa qo'shadi. Imo-ishora tili esa insonlar bilan ijtimoiy muloqotda bo'lishda va atrofdagilar bilan bog'lanishda asosiy vositaga aylanadi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda eng katta ta'sir nutqni o'zlashtirishga bo'ladi. Bola eshita olmagan tovushlarni takrorlay olmaydi, natijada nutq kechikadi yoki buziladi. So'z boyligi sekin rivojlanadi, gap tuzilmalarini o'zlashtirishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bu esa atrofdagi axborotni to'liq tushunishni cheklaydi.

Ijtimoiy-hissiy jihatdan esa eshitish qiyinchiliklari tengdoshlari bilan muloqotda to'siqlar yaratadi, bu esa bolaning o'zini yolg'iz his qilishiga, ijtimoiy faolligining pasayishiga olib kelishi mumkin. Doimiy tushunmovchiliklar, xulq-atvor muammolari hissiy notinchlikni keltirib chiqarishi mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiyasi Yevropadagi qator mamlakatlarda olib borilgan. Kar bolalarni yakka o'qitishda o'sha vaqtning buyuk olimi Djerolamo Kardano (1501-1576) «karlik va soqovlikka» fiziologik tushuncha berdi. Kardano tomonidan birinchi bo'lib, karlar bilan ishlash metodi ishlab chiqildi. U eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni 3 guruhga bo'lib tasniflagan. Ular tug'ma karlar, erta kar bo'lganlar va kech kar bo'lganlar. J. Itar esa eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni 5 guruhga bo'lgan. Ular quyidagicha:

- 1) Yuqori nutq va tovushlarni qulog'ining yaqinida eshituvchilar;
- 2) Unli va undoshlarni ajratuvchilar;
- 3) Ayrim unli va undoshlarni ajratuvchilar;
- 4) Nutqlarni eshitmaydigan, lekin baland tovushlarni eshitadiganlar;
- 5) Umuman eshitishida nuqsoni bo'lganlar.

XV-XVIII asrlarda karlarni yakka o'qitishda 2 xil oqim tashkil qilindi. 1- oqimga mansub X.P. Bonet (Ispaniya), D. Bo'lver, D. Vallis (Angliya) va h.k. nutqning har xil turlari: so'zli, yozma, daktil, imo-ishora nutqlaridan foydalanish g'oyasini ilgari suradi. 2-oqimga mansub F.M. Van Gelmont, I.K. Amman (Gollandiya), F.L. Terkiy (Italiya),

V.Kerger, G.Rafelg (Germaniya)lar o'qitish va muloqotda faqat so'zli nutqdan foydalanish tavsiya etadi.

Karlik eshitishning turg'un yo'qolishi bo'lib, bunday holatda insonning mustaqil ravishda nutqni o'zlashtirish imkoniyati bo'lmaydi. Ularda hatto quloqqa yaqin turib gapirilgan gaplarni ham ravshan idrok etishning imkoniyati bo'lmaydi. Total (to'liq) karlik, xuddi total ko'zi ojizlik kabi juda kam uchraydigan hodisa hisoblanadi. Ko'pincha karlikda baland nutqiy bo'lmagan tovushlarni, quloq suprasiga yaqin masofadagi ba'zi nutqiy tovushlarni idrok etish darajasida bo'lgan eshitish qoldiqlari saqlanib qoladi. Audiometrik tekshiruv eshitishning 80 db. (detsibel - tovushni idrok etishni o'lchashda qo'llanuvchi o'lchov birligi) dan yuqori darajada yo'qolganini ko'rsatadi.

L.V.Neyman eshitish chastotalari doirasida tovushni qabul qilish ko'lamiga tayanib, karlarni to'rtta guruhga ajratadi:

1- guruhda 250 Gs chastotali tovushlarni qabul qiluvchilar. Bu bolalar tovushlarning birortasini ham farqlay olmaydilar, faqat quloq oldidagi baland ovozni eshitadilar. (Baqiriq, poyezd gudogining ovozi.)

2- guruh 125-250-500 Gs chastotalarni qabul qiladi. Bu bolalar nafaqat tovushni eshitadilar, balki «o» hamda «i» unli tovushlarini bir-biridan ajrata oladilar. Yaqin masofada atrof-muhitdan keladigan tovushlarni eshitadilar.

3- guruh 125-250-500-1000 Gs oralig'idagi chastotalarni qabul qiladi. Mazkur guruhdagi bolalar quloq yonida so'zlashuv darajasidagi tovushlarga e'tibor qaratadilar, 3-4 ta unlini farqlaydilar, ularning aksariyati ayrim ma'lum so'zlarni tushunishadi.

4- guruh 125-2000 Gs chastotalarni qabul qiladi. Bu guruhdagi ko'pchilik bolalar quloq oldida va uncha uzoq bo'lmagan masofadan aytilgan nutqni eshitadilar. O'zlariga tanish gap va so'zlarni, unli hamda tovushlarni ajrata oladilar [1].

Eshitish nuqsonini qanchalik erta aniqlash va aralashuvni boshlash, bolaning rivojlanishini shunchalik optimallashtiradi. Zamonaviy tibbiyot va maxsus pedagogika

usullari eshitish qobiliyati yetishmasligini muvaffaqiyatli kompensatsiya qilish imkonini beradi.

Koxlear implantatsiya-sensorineral eshitish qobiliyatini qayta tiklashga yo'naltirilgan jarrohlik amaliyoti bo'lib, u ichki quloqda joylashgan eshitish nervining afferent tolalariga to'g'ridan-to'g'ri elektr impulslari bilan ta'sir etuvchi elektrodli tizimlarni o'rnatishni ko'zda tutuvchi tibbiy muolajadir. Koxlear implantatsiya yordamida eshitishni qayta tiklash o'z tarkibida quyidagi uch bosqichni mujassamlaydi:

1. Operatsiyadan avvalgi bosqich. Ushbu davr doirasida bemorning umumiy holatini aniqlashga qaratilgan kompleks-dagnostik tekshiruv, otologik ko'ruv, audioilogik tekshiruv, vestibulometriya, kompyuter tomografiyasi, bosh miya elektorodiagnostik tekshiruvi, umumiy tibbiy ko'rik hamda psixonevrologik tekshiruvlari o'tkaziladi. Shuningdek, koxlear implantatsiya qilingan boshqa mijozlar bilan tanishish orqali ular operatsiyaga psixologik tomondan tayyorlanadi.
2. Jarrohlik (xirurgik) operatsiyasini amalga oshirish bosqichi.
3. Operatsiyadan keyingi bosqich. Bu bosqich operatsiyadan keyingi reabilitatsiya bosqichi deb nomlanib, avvalgi ikki bosqichdan eng ko'p vaqtni talab etishi, umumiy vaqt va mehnat resurslarining qariyb 80 foizini tashkil etadi. Mazkur bosqich o'ta murakkabligi va yuqori mas'uliyat talab etishi bilan boshqa bosqichlardan ajralib turadi. Chunki u bolaning barkamol rivojlanishida, ijtimoiylashuvida hamda jamiyatga integratsiyalashuvida poydevor vazifasini o'taydi [1].

Har bir bolaning eshitish xususiyatlari va rivojlanish dinamikasi individualdir. Shuning uchun, eshitish apparatini tanlash, kohlear implantdan keyingi reabilitatsiya yoki logopedik yordamni tashkillashtirishda individual yondashuv fundamental ahamiyatga ega. Erta aniqlash, texnologik yordam va kompleks reabilitatsiya usullarini birlashtirish orqali eshitish nuqsoni bo'lgan bolalar o'zlarining to'liq shaxsiy va ijtimoiy salohiyatini yuzaga chiqarishlari mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning rivojlanishi murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, eshitish sezgisining yetishmasligi ularning nutq, til, kognitiv faoliyat hamda ijtimoiy moslashuviga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Eshitish nuqsonining turi va darajasiga qarab, bolaning atrof-muhitni idrok etish darajasi ham farq qiladi, bu esa individual yondashuvning zarurligini yanada kuchaytiradi. Zamonaviy texnologiyalar — kohlear implantlar, eshitish apparatlari, maxsus pedagogik metodlar, logopediya va vizual kommunikatsiya vositalari — eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Biroq ularning samaradorligi eshitish nuqsonining erta aniqlanishi, kompleks rehabilitatsiya hamda oila, maktab va mutaxassislar o'rtasidagi hamkorlikka bevosita bog'liq. Shu sababli eshitish nuqsoniga ega bolalarni qo'llab- quvvatlashda tizimli yondashuv, individual rivojlanish strategiyalari va ijtimoiy inklyuziyani ta'minlash eng muhim omillar hisoblanadi. To'g'ri tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayoni va maxsus yordam vositalari bunday bolalarning to'laqonli shaxs sifatida jamiyatga integratsiyalashuvi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. P. M. Po'latova, L. Sh. Nurmuxamedova, D. B. Yakubjonova, Z. N. Mamarajabova, Sh. M. Amirsaidova, A. D. Sultonova. Maxsus pedagogika (darslik). — T.: «Fan va texnologiya», 2014. — 368 bet.
2. F. U. Qodirova, U. Yu. Fayziyeva, Sh. X. Obilova, O. S. Ishmatova, M. A. Umaraliyeva. Surdopedagogika (darslik). — Chirchiq: «Osiyo tur», 2024. — 272 bet.
3. Maxammadsidiqovna, X. M. (2025). NOGIRONLIGI BO 'LGAN TALABALARNING TA'LIM JARAYONIDA PSIXOLOGIK QO 'LLAB-QUVVATLASH VA MOTIVATSION DASTURLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH. ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISH VA UNGA QARATILGAN KREATIV G'OYALAR, TAKLIFLAR VA YECHIMLAR, 8(82), 149-153.

4. Roziqova, M. (2025). Millatlararo oilalarda voyaga yetayotgan bolalarning ijtimoiylashuvi va etnik identifikatsiya jarayonining psixologik xususiyatlari. MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI, 3(11).
5. <https://sg.docworkspace.com/d/sIC3Y1oqVAqOs4ckG>
6. <https://uz.wikipedia.org/>
7. https://api.scienceweb.uz/storage/publication_files/5287/14442/655397f9de43c69-72.pdf
8. <https://sg.docworkspace.com/d/sIBjY1oqVAsGq4ckG>